



**“BUXORO ADABIY MUHITI:
KECHA VA BUGUN”**
mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy
**ANJUMAN
MATERIALLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI BUXORO
VILOYATI BO‘LIMI**

**TOJIKISTON RESPUBLIKASI BOBOJON G‘OFUROV
NOMIDAGI
XO‘JAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TURKIYA JUMHURIYATI HACETEPE UNIVERSITETI

**“BUXORO ADABIY MUHITI:
KECHA VA BUGUN”**

**mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

**Buxoro
“Ilm ziyosi”
2024**

KBK: 84.3(0)7.724
UDS: 821.557.632.2.4.5.41
K-54

“Buxoro adabiy muhiti: kecha va bugun” mavzusidagi AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari. – Buxoro: “Ilm ziyosi”, 2024. – 632 b.

Buxoro davlat universiteti rektorining 2024-yil 15-avgustdagi 509-U sonli buyrug‘i asosida Buxoro davlat universitetida o‘tkazilgan “Buxoro adabiy muhiti: kecha va bugun” mavzusidagi AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari besh bo‘limdan iborat bo‘lib, uning har bir bo‘limida Buxoro adabiy muhitining o‘tmishi va buguniga doir dolzarb muammolari qamrab olingan. 200 ga yaqin maqolalarni o‘z tarkibiga olgan mazkur to‘plam professor-o‘qituvchilar, mutaxassis va tadqiqotchilar, doktorant va izlanuvchilarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrirlar:

Q.To‘xsanov – BuxDU professori
Sh.Davronova – BuxDU professori

Tahrir hay’ati:

H.Eshonqulov, D.Rajabov, G‘.Murodov, Sh. Axmedova, D.O‘rayeva,
D.Quvvatova, Sh.Hayitov, M.Rajabova, N.Bekova, Z.Amonova

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:

N.Qodirova, R.Rajabova, N.Norova

Taqrizchilar:

Laylo Sharipova– filologiya fanlari doktori, professor
Hayot Latipov– filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

ISBN 978-9910-745-39-3

© Buxoro davlat universiteti, 2024
© “Fan ziyosi”, 2024

“Ko‘nglim rubobi”, “Umrim gulobi”, “Etti pir va yetti avliyo”, “Abdulla Oripov va Buxoro” kabi she’riy , nasriy va publitsistik asarlarining nashri fikrimizni quvvatlantiradi. Shubhasiz, ushbu asarlarda darj etilgan mavzular safining avvalida Vatan va Iymon mavzulari butun salobati bilan qo‘r to‘kib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. – Бухоро. Дурдона 2015.
2. Сафаров О. Туйғуларда тарих жилоси. – Т.: Наврўз. 2013.
3. Тошпўлат Аҳмад. Саждагоҳ. Достонлар. – Т.: Муҳаррир 2011.
4. Воҳидов С. Турфа тақдирларга кўзгу достонлар // Китобда: Тошпўлат Аҳмад Саждагоҳ. Достонлар. – Тошкент. Муҳаррир, 2011.
5. Тошпўлат Аҳмад. Гавҳари жоним. – Т.: А. Qodiriy nomidagi nashriyot. 2002.
6. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. – Т.: Ўзбекистон. 2009.

ABDURAUUF FITRAT SHE’RIYATINING O‘ZIGA XOSLIGI

Davronova Shohsanam G‘aybulloyevna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Maqolada Abdurauf Fitrat she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Shoir she’riyatida ramziylik, poetik ifodaning o‘ziga xosligi va mahorat masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. She’r, Abdurauf Fitrat she’riyati, mavzu, g‘oya, uslub, ramziylik, badiiy ifoda.

Абстрактный. В статье говорится об идейно-художественных особенностях поэзии Абдурауфа Фитрата. Поэзия поэта охватывает вопросы символизма, своеобразия и мастерства поэтической выразительности.

Ключевые слова. Поэзия, поэзия Абдурауфа Фитрата, тема, идея, стиль, символика, художественное выражение.

Abstract. The article talks about the ideological and artistic features of Abdurauf Fitrat's poetry. The poetry of the poet covers the issues of symbolism, uniqueness and skill of poetic expression.

Keywords. Poetry, poems of Abdurauf Fitrat, theme, idea, style, symbolism, artistic expression.

Abdurauf Fitratning badiiy ijodi taraqqiyotida she’riyatning alohida o‘rni bor. Shoir lirikasi zamonaviy o‘zbek she’riyatining shakl va mazmuniy yangilanishlarini faol o‘zlashtirgan, aruzdan barmoq va erkin she’r tizimiga o‘tish jarayonidagi milliy she’riyatimiz uslubiy izlanishlarini o‘zida namoyon etgan yoniq, xassos, kuchli pafosga yo‘g‘rilgan ijodiy namunalaridir.

Ijodkorning dastlabki she’riy to‘plami “Sayha” (“Cho‘g‘don”) nomi bilan nashr etilgan. Undan tashqari ijodkorning “Uchqun”, “She’rlar, doston”, “Mening tunim” kabi she’riy to‘plamlari e‘lon qilingan.

Ijodkor nazmiy asarlari orasida sochma, erkin, barmoq va aruziy ohanglarda yozilgan she'rlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, Fitrat muharrirligidagi "Hurriyat" gazetasida "Yurt qayg'usi" umumiy sarlavhasi ostida sochma yo'sinda yozilgan uchta she'ri e'lon qilingan bo'lib, unda ramziylik, falsafiy ruhda kuchli, vatanparvarlik g'oyalari va hissiy kechinmalar ifoda etilgan. Ushbu turkumning dastlabki qismi sarlavhasi ostida "sochma", keyingisiga "bir o'zbek tilidan", so'nggisiga esa "Temur oldinda" deb izoh beriladi. Asarda Fitrat juda ko'plab savollar, chaqiriqlar, hayqiriqlarga asoslangan jummalarni keltiradi.

"Ey Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi!

Senga ne bo'ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding?" [2.31] deb boshlanuvchi birinchi she'rdagi satrlar Turon o'lkasining tarixi, buyuk kishilari, amalga oshirgan ishlar xotirga olinib so'roq beriladi.

Keyingi she'rda bir o'zbek yigitining tasavvurida, xayollarida jonlangan "...egnida bir kiyim yo'q. Bosh-ayog'lari yalang'och, tirsaklarigacha qop-qora loyqadan botg'an, baqirurg'a tovushi, qutilurg'a kuchi qolmag'an!.." xotun Turkistonning ramziy timsoli sifatida aks ettiriladi. Buni yigitning o'zi ayni paytda angelaydi, ya'ni uni tinmay ta'qib etayotgan xayol Vatan qayg'usi edi.

"Men sening uchun tirildim,

Sening uchun yasharman,

Sening uchun o'lurman,

Ey turklikning muqaddas o'chog'i!" [2.33], deya hayqirgan o'zbek yigiti ma'rifatparvar Fitratning qalb tug'yonlarini ifoda etadi.

Uchinchi qismda Temur sag'anasi oldida qayg'u chekib, dard-u hasratlarini bayon etgan lirik qahramonning nutqida yurtning qaram va ayanchli holda ekanligidan o'kinish, Vatan uchun fidoyilik kechinmalari aks ettirilgan.

Shoirning ko'plab she'rlarida ana shunday vatanparvarlik, fidoyilik, kuyunchaklik ruhi yetakchilik qiladi. Shoirning lirik qahramoni yurtidagi tushkunliklar, elning nochor ahvolini ko'rib eziladi, kuchli his-hayajonga beriladi va bu ahvoldan chiqishning yo'llarini izlaydi.

Shoirning talqinida nafaqat o'z yurti, balki butun Sharq mamlakatlari va xalqlari ahvoli yoritiladi. Ammo she'rlar zamirida yotgan g'oyaviy mazmundan Fitratning ichki tug'yonlarini larzaga keltirgan hodisa o'z yurtining qaramligi va taraqqiyotdan ortda qolayotganligi bilan bog'liqligi yaqqol sezilib turadi.

Shoirning "Kim deyay seni?", "Bir oz kul", "Achchig'lanma degan eding", "Go'zalim, bavafo gulistonim", "Ishqimning tarixi", "Yana yondim", "Nega bo'yla", kabi she'rlari muhabbat mavzusida bo'lib, ularda samimiy insoniy tuyg'ular ifoda etiladi. Aksariyat ishqiy mavzudagi she'rlarda murojaat, chaqiriq ohangi yetakchilik qiladi. Shoirning lirik qahramoni sevgilisiga nisbatan eng go'zal tashbehnlarni ishlatadi. Uni oppog'im, qip-qizil gulim, yop-yopug' oyim ("Kim deyay seni?"), qizil gulim, qora ko'zim, tilagim ("Bir oz kul"), malak, nozli quyosh, umidimning guli ("Achchig'lanma degan eding") kabi sifatlar bilan erkalaydi. Bu borada uning quyidagi she'ri ayniqsa diqqatni tortadi:

Go'zalim, bevafo gulistonim,

Bog' umrimda toza rayhonim,

G'am-u qayg'ularim hujumidan
Sen eding mehribon nigahbonim [2.45].

Ushbu she'rdam ham yorini eng nafis sifatlar bilan ta'riflagan lirik qahramon uning bevafoigidan o'kinadi. Shuni ham ta'kidlash mumkinki, shiorning muhabbat mavzusidagi ko'plab she'rlarida ayriliq, ma'shuqaning bevafoigidan aziyat chekkan oshiqning holi tasvir etiladi. Ammo ma'shuqa qanchalar bevafo bo'lmasin, lirik qahramon – oshiq uni unuta olmaydi, uning vasfini madh etishdan tolmaydi. Yana bir jihat e'tiborni tortadiki, jadid she'riyatida ishq-imuhabbat mavzusining qamrovi ramziy tasvir imkoniyatari asosida kengayib borgan. Oshiq, yor tushunchalari yurt va yurtparvar inson timsollari bilan uyg'unlashib ketadi. Tamsillar va tashbehlarning tag ma'nosini ochishga harakat qilinganida, ba'zan lirik qahramonning ishq faqat mahbuba – go'zal qizgagina emas, balki botiniy ma'noda go'zal va betakror Vatanga, elga bo'lgan muhabbatning zamirida tug'ilgandek taassurot uyg'otadi. Fitrat she'rlarini ham ana shunday yo'sinda talqin etish imkoniyati mavjud. Masalan:

Yuragimning qalin, qizg'in olovi-la qaynag'an
Ko'z yoshlarim! Qaydasiz?! [2.38]

– deb boshlanuvchi “Yana yondim” she'ri ko'z yoshlarga murojaat bilan boshlangan bo'lib, unda aks etgan tushkun, qayg'uli ruhda ham shoirning maslagi yashiringandek seziladi:

Yana butun borlig'imning negizlari yemrildi,
Umidimning ko'p chidamli teraklari yiqildi,
Xayolimning totli, chuchuk soatlari butunlay
Uzoqlashib ketdi mendan..! To'sib turar yo'limni
Umidsizlik qayg'ulari tongi otmas bir tunday,
O'lim dahi qutqarg'ali kelib tutmas qo'limni [2.38].

Lirik qahramon ko'nglidagi umidsizlik, g'amginlik ruhi, teraklarning yiqilgani, tun, o'lim kabilarning tilga olinishi shoir ijodidagi qayg'uli, vatanparvar oshiq qalbining turfa hollarini namoyon etgandek go'yo. Yor va diyor madhi uyg'un tasvirlangan she'rlar jadid shoirlari ijodida ana shunday ramziy bo'yoqlarda, zabun ohanglarda beriladi.

Fitratning “Mirrix yulduziga”, “O'gut”, “Ovunchoq”, “Shoir”, “Behbudiyning sag'anasini izladim”, “Sharq”, “O'qitg'uvchilar yurtiga”, “Qor”, “Mening kecham” kabi she'rlari ijtimoiy mazmun bilan sug'orilgan. Shoir she'rlarida ramziylik kuchli bo'lib, kecha, qora, qor, bulut, zulmat kabi tushunchalarning mohiyati Turkistonning o'sha davrdagi ahvolini poetik ifodalash uchun qaratilgan edi. Shoir she'rlarida tabiat, borliq lirik qahramonning ruhiyatiga mos holatda mungli, ezgin, tushkun, harakatsiz namoyon bo'ladi. Masalan, ijodkor talqiniga ko'ra “Tolpinmadi, sayrashmadi qushlar”, “tog' gavgali uylar, qo'nuqlar, saroylar ayrildi butun dabdabasidan” (“Mening kecham”); qor ham “Titrib-titrib qora yer uzra tushar!” va “Tushgach, butun tushkanlarday toptalar...” (“Qor”).

El-yurt qayg'usi bilan yongan shoir she'rlarida qora ranglar, ezgin tuyg'ular aks etgan bo'lsa-da, uni kelajakka, yorug' kunlarga bo'lgan umidvorlik, ishonch tark etmaganligini “Ovunchoq” she'ri orqali anglashimiz mumkin. Lirik qahramon

oydinlikning yo‘lini to‘sib turgan “qora, eski, titrak bulutlar”ning “kuchli bir yel ko‘rgach” turmasligiga, yirtilishiga umid bog‘laydi.

Shoir “So‘kish, qarg‘ish, la‘nat aralash bo‘g‘iq tovushlar”, “Kimsasizlik puchmog‘i”, “Yo‘qsul, o‘ksuz qizlarday ingrab, inglab, oqib turg‘an bir soyning qirg‘og‘ida o‘skan o‘ksuz bir og‘och” – bularning bari “Erta, indin butun-butun yo‘qolar” va “Umid guli bizim uchun ham tug‘ar” deya ishonadi. Shuni ham ta‘kidlash joizki, bu murojaatlar “haq tuyg‘usi”ga qaratilgan edi. “Qayg‘urmagil, sira, ey haq tuyg‘usi!” takrori she‘rning ikki o‘rnida keltiriladi. Shuningdek, ijodkorning “O‘qitug‘uvchilar yurtiga” she‘rida ham ilm-ma‘rifatning “haq yo‘llarin ko‘rsatkuchi...” vosita bo‘lishiga ishonadi. “O‘gut” she‘rida esa “Og‘ir yigit”ning nurli ko‘zlarida millatning saodatini ko‘rgan shoir uni harakatga, yuksalishga undaydi:

Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal,

Hurkma – kirish, qo‘rqma – yopish, yo‘rilma –

Qo‘zg‘al. [2.41]

Bu kabi da‘vatlar shoirning yurtdoshlarini uyg‘onishga, intilishga undab yozilgan hayqiriqlari edi.

Ijodkorning ayrim she‘rlaridagi hayqiriqlar, murojaatlar, so‘roq ohanglari javobsiz qoldiriladi. Bu orqali shoir yurtdoshlarini o‘ylashga, mushohada qilishga chorlaydi va ularning she‘rda aks etgan hodisalardan xulosa chiqarishlariga ishonadi. Shoirning “Mirrix yulduziga” she‘ridagi savollar ramziy ma‘noda murojaat qilingan “Go‘zal yulduz”ga “Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar”, “Qardosh etin to‘ymay yegan qoplonlar”, “...o‘ksuz yo‘qsulning qonin – Gurunglashib chog‘ir kabi ichkanlar” makoni bo‘lgan o‘z yeridagi “tubanliklar, xo‘rlklar”dan lirik qahramonning shikoyati asosida tuziladi. “Sharq” she‘ri esa mazmun-mohiyatiga ko‘ra “Sharq siyosati” publitsistik maqolasida aks etgan qarashlarni eslatadi. Ijodkorning she‘riy, nasriy, dramatik va publitsistik asarlarida Sharq mavzusiga o‘rni bilan murojaat qilinganligini kuzatish mumkin. Fitratning “Sharq” she‘ri “Qardoshlarim” degan murojaat bilan boshlanadi va shoir jannatmakon bir o‘lkaning ta‘rifini keltiradi:

Qardoshlarim, mana sizga bir o‘lka

Kim, topilmas yer yuzida singari.

Har yonida keng, yam-yashil uchmohlar

Jon suvından yetishkandır gullari...

Og‘ochlari yashil kiyimlar kiygan

Evrilishar toping‘ali tangriga [2.41].

She‘rning dastlabki satrlari go‘zal va betakror bir o‘lkaning tavsifiga bag‘ishlangandek taassurot uyg‘otadi. Shoir ta‘rificha bu o‘lka jannatmonand, gullari, o‘simliklari “jon suvidan”, ya‘ni mehr bulog‘idan oziqlangan. Ularning barq urib o‘sib-yuksalishlarini shoir nafis san‘at – husni ta‘lil bilan ifodalaydi: asardagi tasvirga ko‘ra yashilga burkangan daraxtlar tangriga topinish uchun yuqoriga bo‘y cho‘zmoqda.

“Qay yer bu o‘lka? Hindmi, Turkistonmi? “Angliz”-chi” U shartli emasmikin? She‘rni, albatta, kengroq ham, torroq ham tushunish mumkin. Ya‘ni Sharq-G‘arb, Turkiston-Rus shaklida ham anglash mumkin. To‘g‘rirorg‘i ham keyingisi” [4.372].

She'r dastlab ajib bir yurt tasvirlanib, vazmin ruh bilan boshlangan bo'lsa-da, asta-sekin satrlardagi ohang kuchaya boradi, qayg'uli kayfiyat ustuvorlik qila boshlaydi va so'ngida savol bilan yakunlanadi. Dastavval go'zal o'lkaning ta'rifini keltirgan shoir uning behad nochor ahvolga solinganini juda kuchli hayajon bilan yoritadi. She'rda tasvir etilgan dahshatli voqealar o'quvchini ta'sirlantirmay qo'ymaydi. "Doston zamiridan bu xo'rlik va azoblarning, tarixiy-ijtimoiy tanazzulning sabablarini o'zimiz uqib olamiz. Bir vaqtlar mavjud bo'lgan qudrat, shon-shuhratning yo'qolishi boisi, bu – Sharq (ayni vaqtda Turkiston) xalqida ahillik va ittifoqning yo'qligida, o'zlikni, g'ururni chuqur anglash va uyg'onish tuyg'usining so'nikligida hamda eng asosiysi, imperiyacha istilo balosidadir" [3.126].

Umuman "Sharq" she'rida shoir ko'plab boshqa asarlarida yoritilgan ijtimoiy adolatsizlik, zulm-zo'ravonlik muammolarini, erk va istiqloq g'oyalarini ta'sirchan yo'sinda yangicha bir yo'sinda ifoda etgan.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitrat she'riyati, poetik jozibadorligi, badiiy-tasviriy vositalar bilan bezalganligi, uslubiy rang-barangligi, pafosning kuchliligi, ma'rifatparvarlik g'oyalari va samimiy insoniy tuyg'ularga yo'g'rilganligi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat A. Chin sevish. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. – 256 b.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. Jild I. She'rlar, nasriy asarlar, dramalar. –T.: Ma'naviyat, 2000. – 256 b.
3. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. –T.: O'qituvchi, 1999. – 544 b.
4. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizaev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. –T.: Ma'naviyat, 2004. – 464 b.

AHAD HASAN IJODINING MA'RIFIY AHAMIYATI

Rajabova Ra'no Zaripovna,

Buxoro davlat universiteti dotsenti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Maqolada Buxoro adabiy harakatchiligining hozirgi adabiy jarayondagi o'rni va uning ijodkorlari yaratgan asarlarlari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, adabiy harakatchilik, adabiy jarayon, qissa, hikoya, mazmun, shakl.

Аннотация. В статье комментируется место бухарского литературного движения в современном литературном процессе и произведения, созданные его создателями.

Ключевые слова: Бухара, литературное направление, литературный процесс, новелла, повесть, содержание, форма.

Annotation. The article comments on the place of the Bukhara literary movement in the modern literary process and the works created by its creators.

MUNDARIJA

<i>Obidjon Xamidov</i> BUXORO – JAHON TAMADDUNING BESHIGI	3
1-SHO‘BA. ADABIY MEROS, MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MASALALARI	
<i>Shavkat Hayitov, Kamola Qudratova</i> NAVOIY PANDNOMASINING BUXORODAGI QO‘LYOZMA NUSXASI HAQIDA.....	5
<i>Dilrabo Quvvatova, Sevinchbonu Baxtiyorova</i> ABU MANSUR AL-MOTURUDIYNING “KITOB AT-TAVHID” ASARINING MUMTOZ SHARQ ADABIY MANBASHUNOSLIGIDA TUTGAN O‘RNI.....	9
<i>Nazora Bekova, Xumora Ikromova</i> DEVONI SAYQALIYNING ILOHIYOTGA DOIR QISMLARINING QIYOSIY TAHLIL.....	12
<i>Safarova Hilola, Muzaffarova Surayyo</i> “ZARBULMASAL” ASARI NASHRLARIDAGI FARQLI O‘RINLAR	16
<i>Matkarimova Salomat</i> XORAZM ADABIY MUHITIDA TAZKIRANAVISLIKDA ALISHER NAVOIY TA‘SIRI.....	19
<i>Kenjayev To‘lqin</i> FITRAT ASARLARINING NASHRI BILAN BOG‘LIQ AYRIM QAYDLAR XUSUSIDA.....	26
<i>Hulkar Turdiyeva</i> SHERALI TURDIYEV TADQIQOTLARIDA FITRATSHUNOSLIK.....	31
<i>Azimjon Hamidov</i> SO‘ZDAGI HARF, TOVUSH BILAN BOG‘LIQ MATNIY FARQLAR, ULARNING MA‘NO VA BADIYYATGA TA‘SIRI.....	34
<i>Ш. Норқўчқоров</i> ТАҚТЕИ ҲУДУДИ ҲАРФҲОИ ҚОҒИЯ ДАР “ШАҶРАТ- УЛ-АРЎЗ”-И САИД МУЗАФФАЛЙ.....	39
<i>Xudoyorova Nigora</i> ADABIY MEROS, MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK MASALALARI.....	43
<i>Oripov Jahongir</i> BUXORO QO‘LYOZMALAR MUZEY-QO‘RIQXONASIDA SAQLANAYOTGAN DURBEKNING “YUSUF VA ZULAYXO” DOSTONI HAZORA NUSXASI XUSUSIDA.....	46
<i>Eshonqulova G.T</i> BADIY TARJIMA VA UNING XUSUSIYATLARI.....	53
<i>Hamroyeva Sharifa</i> ASLIYATDA PRAGMATIK XUSUSIYATLAR VA UNING TARJIMADA QAYTA YARATILISHI.....	58
<i>Eshonqulova Feruza</i> HAYDAR XORAZIYNING “MAXZAN UL-ASROR” DOSTONI, UNING NUSXALARI VA NASHRLARI XUSUSIDA.....	62
<i>Davronova Mexrangiz</i> ARBA‘IN TOSHBOSMASINING ILMIY TAVSIFI TARKIBI VA TUZILISHI.....	65
<i>Муртазин Эмль , Петров Рустем</i> ТРАДИЦИИ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА В ЛИТЕРАТУРЕ БУХАРЫ.....	70
<i>Shohsanam Suyunova</i> MANBALARDA SAYFIY BUXORIYNING “MUAMMO” RISOLASI VA NAVOIYNING MUAMMO YECHISH MAJLISLARINING YORITILISHI.....	73
<i>Olimova Munavvar</i> “HUVAYDOYI CHIMYONIY” TOSHBOSMASINING BOSMA NASHRLAR BILAN QIYOSIY TAHLILI.....	77

<i>Abduhamid Xolmurodov</i> TERAN TAHLILLAR SAMARASI.....	177
<i>G'ayrat Murodov</i> SHOIR SHE'RIYATI.....	183
<i>Shoira Axmedova</i> XX ASRNING 20-YILLARI O'ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGIDA TANQIDIY-BIOGRAFIK OCHERK JANRI RIVOJIDA FITRATNING O'RNI.....	188
<i>Darmonoy O'rayeva</i> ASAD GULZODAI BUXORIY SHE'RIYATIDA FOLKLORIZMLAR.....	192
<i>Dilrabo Quvvatova</i> QUTLUG' BIR MAKONDA GUL OCHDI CHECHAK.....	196
<i>Qahramon To'xsanov</i> SHAVKAT BUXORIY IJODIDA DINIY VA TASAVVUFIY G'OYALAR IFODASI.....	204
<i>Husniddin Eshonqulov</i> MUJRM – OBID VA UNING G'AZALNAVISLIK MAHORATI XUSUSIDA.....	208
<i>Nazora Bekova</i> ABDURAHMON TAMKIN BUXORIYNING HAYOTI VA ADABIY MEROSI.....	214
<i>Sh.A.Hayitov M.Muxammadova</i> SHOH – DARVESH KONSEPTINING RUSTAM BAHODIRXON TIMSOLIDAGI ILMIY- BADIY IFODASI.....	219
<i>Ergash Ochilov</i> NOSIR BUXORIY IJODIDA FAXRIYA BAYTLAR.....	222
<i>Ergash Ochilov</i> NOZIKTA'B VA DAQIQXAYOL SHOIR.....	228
<i>Dilnavoz Yusupova</i> HASANXOJA NISORIY ARUZSHUNOS HAM BO'LGANMI?.....	233
<i>Zilola Amonova, Gulchehra Murodova</i> QUL UBAYDIY IJODIDA YASSAVIYLIK TA'SIRLARI.....	237
<i>Sulaymon Shodiyev</i> MEN BILGAN G'ULOM AKA.....	242
<i>Shodmon Sulaymonov</i> KICHIK TADQIQOTNING ULKAN SABOQLARI.....	246
<i>Hilola. Safarova</i> ISTIQLOL YILLARI BUXORO ADABIY MUHITIDA DOSTON JANRIDAGI BADIY IZLANISHLAR.....	248
<i>Ma'rifat Rajabova</i> O'ZBEK VA FORS-TOJIK ADABIY ALOQALARI S. AYNIY TALQINIDA.....	253
<i>Nazzora Bekova, Dilnavoz Achilova</i> ABDULQODIR KAROMATULLO IBN NE'MATULLO SABBOQ BUXORIY HAYOTI VA ADABIY MEROSIGA OID.....	257
<i>Normurod Hakimovich</i> FITRATNING PUBLITSISTIKASIDA MILLAT TALQINI.....	261
<i>Rajabov Dilshod, Ahrorova Nigina</i> TOSHPO'LAT AHMAD IJODIGA CHIZGILAR.....	265
<i>Davronova Shohsanam</i> ABDURAUFI FITRAT SHE'RIYATINING O'ZIGA XOSLIGI.....	269
<i>Rajabova Ra'no</i> AHAD HASAN IJODINING MA'RIFIY AHAMIYATI.....	273
<i>Mavluda Ergasheva</i> DAVLAT MUSTAQILLIGI VA ABDURAUFI FITRAT.....	277
<i>Saidova Rayhon</i> ABDURAUFI FITRAT'IN YORUMLANMASINDA EDEBIYATTA "ŞİİR VE ŞAİR" SORUNLARI.....	281
<i>Sodiqova Dilorom</i> LIRIK JANRLAR YARATISHDA SHOIRA	

Ilmiy nashr

**“BUXORO ADABIY MUHITI:
KECHA VA BUGUN”**

mavzusidagi

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

MATERIALLARI

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi:
Bichimi 60x84. Kegli 14 shponli. «Times New Roman» garn.
Offset bosma usulida chop etildi. Offset bosma qog'ozi.
Bosma tabog'i 12,2. Adadi 40.

“Fan ziyosi” nashriyoti
Bahosi kelishilgan holda.
“Dunyo poligraf plyus” X/K
bosmaxonasida chop etildi.

Mustaqillik ko'chasi 21-uy, Tel.: (91) 416-50-09